O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**M. ARIPOV, B. BEGALOV, U. BEGIMQULOV,
M. MAMARAJABOV**

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etgan

TOSHKENT — «NOSHIR» — 2009

www.ziyouz.com kutubxonasi

32.81
A 90

Ushbu o'quv qo'llanma gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy magistratura mutaxassislik talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kunning dolzarb «Axborot texnologiyalari» fanining mazmunini ochib berishga qaratilgan. Qo'llanma darsda va mustaqil o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar bilan to'ldirilgan. Unda talabalar o'zini o'zi nazorat qilishi uchun topshiriq savollari keltirilgan.

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU «Informatika va TAT» kafedrasi professori, texnika fanlari doktori, professor *U. Yuldashev*

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Informatika» kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent *M. Atamirzayev*

Axborot texnologiyalari/M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov,
A 90 M. Mamarajabov.— T.: Noshir, 2009.— 368-b.
I. Oripov M. **BBK 32.81ya73**

Мирсаид Aripov, Баҳодир Begalov, Узокбой Begimqulov, Мирсалим Mamarajabov

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan

Muharrir *Sh. Mansurov*
Texnin muharrir *N. Sorokina*
Rassom *Sh. Odilov,*
Musahhih *P. A'zamova*
Sahifalovchi *L. Abkerimova*

Bosishga ruxsat etildi 16.07.09. Bichimi 60×84$^{1}/_{16}$. «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli bos.t. 25,7. Nashr.t. 23,0. Nusxasi 1000. Buyurtma № 17.

«NOSHIR» MChJ.
Toshkent sh., Navoyi ko'chasi, pastki savdo pastaslari.

ISBN 978-9943-353-18-3

© «NOSHIR» nashriyoti, 2009

www.ziyouz.com kutubxonasi

KIRISH

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'i ZiyoNET ni tashkil etish to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asos qilib olinmoqda.

Mazkur qonun, qaror va farmonlarda «...maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo'llanishga asoslangan ilg'or ta'lim tizimlarini kiritish» vazifalari belgilab qo'yilgan.

Shuning uchun ham har bir mutaxassis o'z sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o'quv qo'llanma takomillashtirilgan dastur asosida yaratilgan bo'lib, uning mazmunida an'anaviy mavzular bilan bir qatorda, yangi mavzular ham o'z aksini topgan. Jumladan, jamiyatni axborotlashtirish, axborot tizimlari va ularning turlari, dasturiy ta'minot va obyektga mo'ljallangan texnologiyalar, axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari, operatsion sistemalar, kompyuter to'rlari, kompyuter grafikasi va dizayn, Web-sahifalar yaratishga mo'ljallangan texnologiyalar, ma'lumotlar va bilimlar ombori, masofaviy o'qitish asoslari, axborot xavfsizligi, amaliy paketlar, nashriyot tizimlari, tarjimon va konvertor dasturlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi kabi mavzular bo'yicha bilimlarni va mustaqil o'qish uchun yetarli nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi